

Korxonalar (tashkilot, muassasalar) uchun qattiq maishiy chiqindilar olib chiqib ketish bo'yicha xizmat ko'rsatish.

№ 218 -sonli SHARTNOMA

2022 y "27" yanvar

Quva tumani.

Bundan buyon matnda, "Ijrochi" deb ataluvchi korxonalar, Nizom asosida faoliyat olib boruvchi "FARG'ONA TOZALIK SANITAR SERVIS" mas'uliyati cheklangan jamiyati nomidan rahbar B.Xo'jaev bir tomondan va bundan buyon matnda "Buyurtmachi" deb yuritiluvchi Дубов Абдуhamидов Исмомил пир махжумов faxbar С. Мамисов ikkinchi tomondan quyidagilar to'g'risida shartnoma tuzdilar:

### 1. SHARTNOMA MAZMUNI

1.1 "Buyurtmachi" topshiradi, "Ijrochi" esa shartnomada ko'rsatilgan haq evaziga "Buyurtmachi" tomonidan maxsus belgilangan joyga yig'ilgan QMCh (qattiq maishiy chiqindilar)ni tashib chiqib ketishni o'z zimmasiga oladi. "Buyurtmachi" esa xizmat to'lovlarini to'lab berishi shart.

1.2. Q.M.CH umumiy xajmi bir oyga 5,43 m<sup>3</sup>, bir yilga 16<sup>29</sup> m<sup>3</sup> tashkil etadi.

1.3. Ushbu shartnomani imzolash paytidagi amaldagi narx 15 foizlik QQS bilan xar bir m<sup>3</sup> QMCh uchun 46.000 so'm,

1.4. Shartnoma bo'yicha bir yillik ko'zda tutilgan to'lov summasi 749340 so'm.

### 2. "BUYURTMACHI"NING MAJBURIYATLARI

2.1 Q.M.Ch qattiq maishiy chiqindilarni quyidagi ko'rsatilgan manzilga, ya'ni Селлеманган 140и olib chiqib tashlash.

2.2 Yirik xajmdagi chiqindilar va shox-shabballarni tashib ketish uchun alohida haq evaziga bir marotabalik shartnoma tuzish.

2.3 QMChni o'z vaqtida olib chiqib ketilishini doim nazorat qilish, tasdiqlangan yo'nalish jadvali buzilgan xollarda +998 33 276 12 76 telefoniga telefonogramma yo'llash orqali "Ijrochiga" ma'lumot berish.

2.4. O'z Res. Prezidentining 22.11.2018 yildagi 5580-sonli Farmoniga asosan QMChni olib chiqib ketish xizmati bo'yicha to'lovlarni "Ijrochi"ga 100 foiz oldindan to'lash asosida amalga oshirish.

2.5. Buyurtmachi kadastr xujjatidagi ko'rsatilgan kv.m maydonini yozma ravishda ko'rsatilishi shart. To'lovlar (kv.m yoki reys) bo'yicha xisob kitob qilinadi.

2.6. Buyurtmachi maishiy chiqindilarni markaziy ko'chalarning belgilangan joylariga kech soat 18:00 dan ertalabki 06:00 gacha olib chiqib tashlash.

### 3. "IJROCHI"NING MAJBURIYATLARI

3.1. Shartnomada ko'rsatilgan QMCh tashlanadigan maxsus manzildan chiqindilarni maxsus avtomashinalarda jadval asosida olib chiqib ketilishini ta'minlash.

3.2. "Buyurtmachi"ning buyurtmasiga asosan qo'shimcha to'lov hisobiga qurilish va yirik xajmdagi chiqindilarni, shox-shabballarni olib chiqib ketish uchun transport ajratish.

3.3. Har oy boshiga o'tgan xisobot oy uchun shartnoma asosida "Buyurtmachi" xisob raqamiga to'lov talabnomasini yuborish.

3.4. "Buyurtmachi" tomonidan QMChni o'z vaqtida olib chiqib ketilmagan to'g'risida ma'lumot kelib tushgandan so'ng 1 kun muddat ichida ko'rsatilgan manzildan chiqindilarni olib chiqib ketish.

3.5. Biriktirilgan yo'nalishda sanitar tozalik nazoratini olib borish.

### 4. TOMONLARNING JAVOGBARLIKLARI

4.1. "Buyurtmachi" shartnomada ko'rsatilgan muddatdan keltirilgan xar bir kun uchun belgilangan muddatda to'lanmaga summaning 0.4% miqdorida, lekin kechiktirilgan to'lovning 50% dan oshmagan miqdorida "Ijrochi"ga penya to'laydi. Agar "Ijrochi" ushbu xabarnomadan so'ng o'z vakilini dalolatnoma tuzish uchun yubormasa, yoki 24 soat ichida QMCh olib chiqib ketilmasa, "Buyurtmachi" jamoatchilik ishtrokida dalolatnoma tuzadi va ushbu dalolatnoma aybdorga nisbatan shartnomada ko'rsatilgan jazo turlarini qo'llash uchun asos xisoblanadi.

4.2. "Ijrochi" o'z vaqtida QMCh olib chiqib ketmaganligi uchun ikki tomon vakillari tomonidan imzolangan dalolatnoma asosida har bir kun uchun olib chiqib ketmagan QMCh xajmi qiymatidan

Пробный период Scanitto Pro окончен

Please visit [www.scanitto.com](http://www.scanitto.com)